



USTOZ KOMPOZITOR ULUG'BEK MUSAYEV IJODIGA BIR NAZAR

Atadjanov Muxammad Abdusharipovich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, kompozitor

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10450214>

ARTICLE INFO

Received: 22th December 2023

Accepted: 30th December 2023

Online: 31th December 2023

KEY WORDS

Kompozitorlik ijodi, To'maris, balet, opera, trio, Mangulik, Afsonalar vodiysi.

ABSTRACT

Ush bu maqolada o'zbek musiqa madaniyati va kompozitorlik ijodida muhim ijodkor shaxslardan biri bo'lmish Ulug'bek Musayevning hayot yo'li va ijodiga doir fikr-mulohazalar yoritiladi.

Kirish: Bugungi kun talabi asosida ajdodlar merosini qund bilan o'rganish va uni avlodlarimiz ongiga milliy meros sifatida singdirish bugungi zamon talabidir. Ayniqsa milliy kuy va ashulalarni yosh avlod ongiga singdirishda mahoratli bastakor ustoz Ulug'bek Musayev ijodiy faoliyatini teran o'rganish va uni hayotga keng tadbiiq etish biz va musiqashunos olimlarning burchi va vazifasidir.

Ulug'bek Musayev haqida gap ketganda, u kishining naqadar buyukligi, piri ustozligi, o'zbek musiqali san'atida o'zining betakror sermazmun ijodiy uslubi va merosiga ega kompozitor, madaniyat arbobidir.

Buyuk kompozitor ustozni eslash va ijodini qadrlash bizning muhim vazifalarimizdan biridir. Shu o'rinda hazrati Alisher Navoiyning ustozlar haqida ularni qadrlash borasida quyidagi baytini keltirishni joiz bildik:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Albatta biz qancha harakat qilsakda, ustoz san'atkorlar, madaniyat darg'alarining o'rnini bosishimiz mushkul vazifadir.

Ulug'bek Musayevning hayoti va ijodi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Respublika Davlat mukofoti sovrindori Ulug'bek Musayev hassos ijodkor, rahbar va jamoat arbobi sifatida yurtimizda keng tanilgan. Ulug'bek Razzoqovich Musaev 1948 yil 12 sentyabrda Xorazm viloyatining Urganch shahrida tavallud topdi. Yoshligidan musiqaga mehr qo'ygan bo'lajak kompozitor 1962 yilda M.Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1964 yili musiqa bilim yurtini tugatgach mashhur bastakor, sozanda ustoz Abdusharif Otajonov bo'lajak kompozitorni O'zbekiston davlat konservatoriyasining tayyorlov kursiga olib boradi. O'sha davrda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida bastakor Muxtor Ashrafiy rektor lavozimida faoliyat yuritayotgan edi. Yosh musiqachi, bastakorni qobilyatini payqagan raxbar uni tayyorlov



kursiga qabul qiladi. Ulug'bek Musayev o'qishga kirib, kompozitsiya ixtisosligi bo'yicha professor Boris Gienko sinfida tahsil ola bo'ishlaydi.

Bo'lajak kompozitor talabalik davridanoq o'zining iste'dodi va bilimi bilan konservatoriya o'qituvchilari va talabalari orasida hurmat qozonadi. Bu davr mobaynida Ulug'bek Musayev qo'shiqlar, romanslar, turli cholg'u asboblari va fortepiano uchun pesalar, Lutfiy so'zlariga «G'azallar» vokal-simfonik turkumi, simfoniya-poema va boshqa ko'pgina asarlar yaratdi. Ulug'bek Musayev yaratgan bir qator asarlar respublika va xalqaro tanlovlarda sovrinli o'rinnlarni egallagan. Xususan, 1968 yilda yaratilgan «*Navoiy xotirasiga*» fortepiano triosi yosh kompozitorlarning Respublika tanlovida birinchi o'rinni, skripka va fortepiano uchun yozilgan 3 qismli sonatinasi esa 1969 yilda Moskvada o'tkazilgan tanlovda sovrinli o'rinni egalladi.

1972 yilda Ulug'bek Musayev konservatoriyaning E.Rahim librettosi asosida yozilgan «*Mangulik*» operasining muqaddimasi bilan muvaffaqiyatli tamomladi. Keyinchalik bu opera to'liq ko'rinishda Navoiy nomidagi opera va balet teatrida sahnalashtirildi. Operaning alohida lavhalari O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi plenumida ham muvaffaqiyat bilan ijro etilib, Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Yosh kompozitor mustaqil ijodkorlik ishini muallimlik faoliyati bilan bog'lab bordi. Dastlab Urganch musiqa bilim yurtida, 1975 yildan esa Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida o'qituvchilik qildi. 1982-1991 yillarda Ulug'bek Musayev O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi kotibi, 1992-1995 yillarda esa rais vazifasida faoliyat yuritdi. Kompozitor turli janrlarda sara asarlar yaratdi. Birin-ketin yaratilgan «*Bayramona*» simfonik poemasi, fortepiano va orkestr uchun «*Poema*», turli cholg'ular tarkibi uchun kamer asarlar, romanslar, qo'shiqlar, «*Xalqqa qasida*», «*G'alabaga qasida*», «*Shon-sharaf*» qasidalar kompozitorning ijodiy yetuklik davrini tashkil etadi. Kompozitor ayniqsa musiqali teatr sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

«*Mangulik*», «*Robiya*» operalari, Sh.Rashidovning «*Kashmir qo'shig'i*» dostoni asosida «*Hind dostoni*», «*To'maris*», Navoiy «*Xamsa*»si asosida «*Poetik miniatyuralar*», «*Elektra*» baletlari kompozitorning yirik sahna asarlari qatoriga kiradi. Ayniqsa, uning baletlari xalqaro miqyosda shuhrat qozongan. Kompozitorning «*Afsonalar vodiysi*» baleti 1978 yilda opera va balet teatrida sahnalashtirildi, keyinchalik esa Moskva Katta teatrida «*Hind dostoni*» nomi bilan Yu.Grigorovich rahbarligida baletmeysterlar R.Papko va Yu.Skot tomonidan qayta qo'yilib, tomoshabinlar va san'at ahli tomonidan yuqori baholandi. O.Uzoqov librettosi asosida yaratilgan «*To'maris*» baleti esa birinchi marotaba 1981 yilda Qirg'izistonda Katta opera va balet teatrida bosh baletmeyster Uran Sarbagishev tomonidan sahnalashtirildi. 1984 yilda esa baletmeyster I.Yusupov tomonidan Toshkentda qo'yildi.

Kompozitor yaratgan har bir sahnaviy asar respublikaning musiqiy hayotida katta quvonchli voqeaga aylanardi. Bunga nafaqat yuqorida tilga olingan baletlar, balki «*Poetik miniatyuralar*» baleti ham yorqin misol bo'la oladi. Bu balet ham «*To'maris*», «*Hind dostoni*» singari Navoiy nomidagi opera va balet teatri balet truppassi tomonidan Germaniya, Malayziya, Avstraliya, Rossiya, Qozog'iston kabi ko'pgina mamlakatlarda namoyish etildi.

Kompozitor ijodida quyidagi asarlar mavjud:

Operalari: «*Mangulik*», E.Rahim librettosi 1972 yil;

«*Robiya*» operalari.

Qasidalar: «*Xalqqa qasida*»;



«G'alabaga qasida»;

«Shon-sharaf» qasidalari.

Balet asarlari: «Hind dostoni», Sh.Rashidovning «Kashmir qo'shig'i» dostoni asosida, «To'maris», O.oqov librettosi, 1981 yil, «Poetik miniatyuralar», Navoiy «Xamsa»si asosida, «Elektra» baletlari, «Afsonalar vodiysi» baleti 1978 yilda yozilgan.

Xulosa:

Ulug'bek Musaev hozirgi zamon o'zbek professional musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlardandir. U 1981 yilda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» faxriy unvoni va 1983 yilda Respublika Davlat mukofotiga musharraf bo'ldi. Xulosa o'rnida aytish kerakki ustoz Ulug'bek Musaev shaxsiyati va ijodini e'zozlanishi bizning xalqimiz uchun madaniy merosi uchun ahamiyatli.

References:

1. [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005).